

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ERTAKDAN CHIQQAN QUYOSH

(5-sinf o`quvchilariga o`zbek xalq ertaklarini o`qitish)

Yulduz Raximbayeva Shavkatovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI assistenti

Annotatsiya: Ushbu tezisda ertak janrining o`ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi va shu bilan birgaliklikda ertaklarda xalqning tarixi va milliy qadryatlari, yashayotgan joyining iqlim sharoitlarini o`rganish uchun asosiy manbaa vazifasini bajaradi. Farzand tarbiyasining muhim jihatlari aks ettiriladi.

Kalit so`zlar: ertak, janr, xususiyat, xalq, elat, ota-ona, epik, sarguzasht, hajviy, tarbiya.

Annotation: This thesis discusses the specific features of the fairy tale genre and at the same time, fairy tales serve as the main source for studying the history and national values of the people, the climatic conditions of the place where they live, and the important aspects of raising children.

Key words: fairy tale, genre, feature, people, parents, epic, adventure, comic, education.

Ertaklar xalq og`zaki badiiy ijodiyotining epik turiga mansub bo`lib, o`ziga xos g`oyaviy – mavzuviy yo`nalishga, axloqiy – ta`limiy va ijtimoiy – estetik vazifalarga ega. Ertaklar ham og`zaki tarzda jamoa ijodi mahsuli sifatida anonim ko`rinishda yaratiladi. Garchi uning to`qilish ibtidosi individual ijodkorga borib taqalsada, og`izdan – og`izga, urug`dan-urug`ga, avloddan-avlodga o`tish jarayonida dastlabki ijrochisiga xos belgilarini, obrazlarini, motivlari va badiiy vositalarini deyarli saqlab qoladi. Shu bilan birga versiya va variantlilik hosil qilishi mumkin.

Har bir xalqning ertagi o`sha xalq tarixini, ma`naviy-madaniy turmush tarzini, ichki dunyosini, imon-e`tiqodini boshqa qardosh elu elatlar bilan ijtimoiy munosabatlarini, urfodatlarini, yashash joyining iqlimi va tabiiy shart-sharoitlarini o`rganishda muhim manba vazifasini o`taydi.

XXI asr bolasiga ertak kerakmi? Bola ertakni hayot deb, ertak qahramonini o`zi bilan yonma-yon yashayotgan o`rtoq, deb o`ylaydi. Bola ertakdagagi ijobjiy qahramonlaru salbiy qahramonlar ham hayotda mavjudligiga astoydil ishonadi. Ertaklar bolaga ta`sir o`tkazadi, ertak qahramoni kulta, bola ham kuladi, yig`lasa, bola ham yig`laydi.

Adabiyotshunos olim Omonulla Madayevning bunday yozadi:”Ertaklarda xalq tiliga mansub o`rinli foydalaniladi. Aytuvchi o`z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi.Bu janrga mansub asarlarda,albatta,qizlar o`n to`rt kunlik oydan go`zal,yigitlar mard,qilichlar keskir,dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatga ega bo`ladi.Ertaklarda juda boy va turli-tuman o`xshatish,sifatlash,mubolag`alar majmuasiga duch kelamiz.Shuning uchun ham xalq

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

og'zaki ijodi tarkibidagi bu asralar haqiqiy ma'noda qadriyatlar na'munasi, madaniy merosimizning noyob gavhar-u injulari darajasida e'zozlanadi".

Ertakdagagi voqealarda bola o'zicha ishtirok etadi. Bola Zumrad, Kenja Botir, To'g'rivoy bilan do'st, o'rtoq bo'ladi. Bolaning beg'ubor qalbi ertak qahramonlari singari ezgulik tarafdoi, u shu qahramonlar singari yaxshi odam bo'lishni orzu qiladi. Bolalar hayotni ertak orqali bilib, ertak vositasida oq-qorani ajratadilar. Misol uchun 5-sinf adabiyot darsligida "Uch og'a-ini botirlar" ertagi berilgan. Mazkur xalq og'zaki ijodi namunasidan keltirilgan aka-ukalarni otasi bilan bo'lган munosabatidan tortib, aka-ukalar orasidagi bir-biriga mehr va muruvvatni ko'rib o'quvchi qalbida oila ava undagi jigarlar orasidagi munosabatlar shakllanadi. Aka-ukalarning ziyraklik va ogohlik borasidagi tajribalarini o'quvchining ogohlik har bir davr uchun aktual mavzu ekanligi borasidagi tajribalarni beradi. Shuningdek, "Uch og'a-ini botirlar" ertagida botirlarning otasining farzandlariga "O'g'illarim, men boy emasman, mendan qoladigan davlat sizlarning maishtaingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsani, umid qilib yurmanglar, o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb sizlarni o'qitdim. Yaxshi ism qo'ydim. To'y qildim."

Ota farzandlariga boylik, merosdan umid qilmasliklari balki, o'zalarining bilimi va zakovatiga suyanib o'z baxtlarini topishlari kerak ekanligi, o'quvchiga bilim olish, hunar o'rganish farovon yashash imkonini berishiga ishora qiladi. Yana ota o'g'illarini tarbiyalashda uchta narsaga asosida tarbiya qilganligini aytadi. Ya'ni: "Birinchidan, sog'lom vujudli qilib o'stirdim-quvvatli bo'ldingiz. Ikkinchidan, yarog' bilan tanishtirdim-quroq ishlatishga usta bo'ldingiz. Uchinchidan, qo'rqtmay o'stirdim-qo'rkoq bo'lmay, botir bo'ldingiz." Inson sog'lom bo'lsagina qilmoqchi bo'lган ishoga ishtyoqi bo'ladi, quvvati yetsagina mukammal bajaraoladi. Shu o'rinda quroq, yarog' ishlatish ham yigit kishi egallashi kerak bo'lган zarur ko'nikmalardan ekanligi hozirgi kunda yigitlarning vatan oldidagi yigitlik burchi harbiy xizmat ekanligi haqida o'quvchilarga tushuncha berib ketish kerak bo'ladi. Qo'rqtmay o'stirilgan bolalaridan botirlar yetishib chiqanini aytildi.

Ertakda safar oldidan otaning maslaxatlari keltiriladi: "To'g'ri bo'ling bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmanq-xijolat tortmaysiz. Dangasa bo'lmanq-baxtsiz bo'lmaisiz". Yuqorida har bir davr kishisi uchun kerak bo'ladigan insonga xos jihatlar aytildi, shundan ma'lumki, har bir davrda bolalar tarbiyasi eng kechiktirib bo'lmaydigan jarayon ekanligi aks etiriladi va bunda qaysi jihatlariga e'tibor qaratish kerak ekanligi haqida aytildi. Farzand tarbiyasida yolg'onchilik, maqtanchoqlik, dangasalik kabi illatlar inson hotirjam va baxtli yashashi uchun muhim omillardan

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ekanligini o'quvchiga uqtiradi. Ertakda og'a-inilar safarining birinchi kundanoq sinovlarga duch kela boshlashdi

Bolalarning ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlikni anglashida, ularning bir-biridan farqini ilg'ashi va mantiqini tushunishida ertaklar muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklar bolalar hissiyotini o'stiradi, tuyg'u, tushunchasini rivojlantiradi. Olamni idrok etishni o'rgatsa, odamga tuyg'udosh, qayg'udosh bo'lishni ma'sum va beg'ubor tabiatga – bola sajiyasiga yuqtiradi. Ertaklarning shunday farahbaxsh va sururli ta'sirida ulg'aygan insonlargina madaniyatli, ma'naviyatli bo'ladilar. Vatanparvar, millatparvar, mehnatsevar, insonparvar bo'ladiganlar ham shular. Bunday bolalar olamni ota-onalari, bobo-momolari so'zlagan ertaklar, hayotiy hikoyalar orqali taniydlilar. Bugungi bolaning ertaga qanday fe'l-atvor, odatlar egasi bo'lib kamol topishi bugun tinglayotgan ertaklariga aloqador. Deyarli barcha ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi yagona maqsadga- mehnat ahlining buyuk va yorqin keljak uchun olib borgan kurashlarini, intilish va orzularini aks ettirishga qaratilgan. Shuning uchun ertaklar hamisha yaxshilik va murodga etishdan iborat umidbaxsh g'oya bilan yakun topadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Milliy o'quv dasturi loyihasi. Toshkent, 2020-yil
2. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). Toshkent. 2016.
3. K. Montessori M. Dom rebyonka: Metod nauchnoy pedagogiki: Per.siital. -Gomel. 1993.
4. 4.5-sinf. Adabiyot .Novda.Toshkent-2024
5. Monten Mishel. Izbrannye proizvedeniya v 3-x tomakh. Tom Per. s fr. Moskva: Pedagogika, 1992. 560 s.
6. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2006. – 145 b.